

PEDAGOGIK MULOQOT VA HAMKORLIK TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TALQINI

Xalqaro innovatsion universiteti magistranti

Nazarov Jaxongir Tulayevich

+998905187178

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik muloqot va hamkorlik tushunchalarining ijtimoiy-psixologik mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Pedagogik muloqotning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, pedagogik hamkorlik subyekt-subyekt munosabatlari asosida talabanning shaxsiy faolligi, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida yoritilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik muloqot va hamkorlikning uyg'unlashgan holda tashkil etilishi ta'lim jarayonining ijobiy psixologik muhitini ta'minlashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, pedagogik hamkorlik, ijtimoiy-psixologik omillar, ta'lim jarayoni, shaxslararo munosabatlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ И СОТРУДНИЧЕСТВА

Аннотация: В данной статье представлен социально-психологический анализ понятий педагогического общения и педагогического сотрудничества. Обоснована роль педагогического общения в образовательном процессе как важного фактора формирования межличностных отношений и повышения эффективности обучения. Педагогическое сотрудничество рассматривается как форма субъект-субъектного взаимодействия, способствующая развитию активности, мотивации и социальной адаптации обучающихся. Результаты исследования показывают, что гармоничное сочетание педагогического общения и сотрудничества обеспечивает благоприятную психологическую среду в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогическое общение, педагогическое сотрудничество, социально-психологические факторы, образовательный процесс, межличностные отношения.

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF PEDAGOGICAL COMMUNICATION AND COOPERATION



Abstract: This article provides a socio-psychological analysis of the concepts of pedagogical communication and pedagogical cooperation. The role of pedagogical communication in the educational process as a key factor in shaping interpersonal relationships and enhancing learning effectiveness is substantiated. Pedagogical cooperation is examined as a form of subject–subject interaction that promotes students' activity, motivation, and social adaptation. The findings indicate that the integrated implementation of pedagogical communication and cooperation contributes to the creation of a positive psychological environment in education.

Keywords: pedagogical communication, pedagogical cooperation, socio-psychological factors, educational process, interpersonal relationships.

Kirish. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarmoqda. Ta'lim jarayonida nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki shaxsning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati hamda jamiyatda samarali faoliyat yurita olish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlikka asoslangan yondashuvlar orqali tashkil etish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Pedagogik faoliyat mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u doimo muloqot jarayoni orqali amalga oshiriladi. Pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi muloqot ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, u shaxslararo munosabatlarning shakllanishi, bilimlarning o'zlashtirilishi hamda ijobiy psixologik muhitning vujudga kelishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik muloqotni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki shaxs rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin etish zarurati yuzaga keladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagog va talaba o'rtasidagi munosabatlar subyekt–obyekt tamoyiliga emas, balki subyekt–subyekt munosabatlariga asoslanishi lozim. Bu esa pedagogik hamkorlik tushunchasining ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Pedagogik hamkorlik ta'lim jarayonida o'zaro hurmat, ishonch, empatiya va mas'uliyat kabi ijtimoiy-psixologik omillarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik muhitida ta'lim oluvchilar o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etish, faol ishtirok etish va o'z-o'zini rivojlantirishga intiladilar. Psixologiya fanida shaxslararo muloqot va hamkorlik masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa-da, pedagogik muloqot va hamkorlikning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tizimli ravishda o'rganish, ayniqsa ta'lim jarayonining real sharoitlari bilan bog'liq holda tahlil qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ta'lim muassasalarida pedagogik muloqotdagi muammolar, psixologik to'siqlar va hamkorlikning yetarli darajada shakllanmaganligi o'quv faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli mazkur maqolada pedagogik muloqot va hamkorlik tushunchalarining ijtimoiy-psixologik mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro bog'liqligini asoslab berish hamda samarali pedagogik hamkorlikni tashkil etishning psixologik shart-sharoitlarini yoritish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik muloqot va hamkorlik muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida ko'p yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tushunchalarning ilmiy-nazariy asoslari, avvalo, shaxslararo muloqot, ijtimoiy o'zaro ta'sir hamda faoliyat jarayonida shaxs rivoji haqidagi qarashlar bilan uzviy bog'liqdir. Xorijiy psixolog olimlardan L.S. Vigotskiy ta'lim jarayonida muloqotning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlab, shaxs rivojlanishini ijtimoiy muhit va o'zaro muloqot mahsuli sifatida talqin etadi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi konsepsiyasiga ko'ra, pedagog va talaba o'rtasidagi hamkorlik faoliyati shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu yondashuv pedagogik muloqotni subyekt-subyekt munosabatlari asosida tashkil etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

A.N. Leontev va S.L. Rubinshteynlarning faoliyat nazariyasi doirasidagi tadqiqotlarida muloqot faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu olimlar muloqot orqali shaxsning motivlari, ehtiyojlari va ijtimoiy yo'nalganligi shakllanishini ko'rsatib berganlar. Pedagogik jarayonda esa bu holat pedagog va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sir samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir.

Pedagogik muloqot muammosini tizimli ravishda o'rgangan V.A. Kan-Kalik pedagogik muloqotni pedagog faoliyatining markaziy komponenti sifatida baholab, uning uslublari (avtoritar, demokratik, liberal) ta'lim jarayonida turli psixologik muhitni yuzaga keltirishini ilmiy asoslab bergan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, demokratik muloqot uslubi pedagogik hamkorlikni shakllantirishda eng maqbul hisoblanadi. Shuningdek, A.A. Leontev pedagogik muloqotni shaxslararo o'zaro ta'sirning maxsus shakli sifatida talqin qilib, unda pedagog shaxsining kommunikativ kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, pedagogik muloqot samaradorligi pedagogning empatiya, refleksiya va kommunikativ sezgirlik kabi psixologik sifatlariga bog'liqdir. Hamkorlik pedagogikasi g'oyalari Sh.A. Amonashvili, V.F. Shatalov va I.P. Volkovlarning ilmiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu olimlar ta'lim jarayonida majburlash va bosimga asoslangan yondashuvlardan voz kechib, o'quvchilar bilan hamkorlik, ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish zarurligini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida pedagogik hamkorlik shaxsni rivojlantiruvchi ta'limning muhim sharti sifatida talqin etiladi.

O'zbekistonlik psixolog va pedagog olimlarining ilmiy ishlari ham pedagogik muloqot va hamkorlik masalasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, E.G'.

G'oziyev pedagogik muloqotni shaxs tarbiyasining muhim psixologik mexanizmi sifatida ko'rib, muloqot jarayonida talabaniing emotsional holati, motivatsiyasi va o'z-o'zini baholashi shakllanishini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida pedagogik muloqot madaniyati ta'lim jarayonining psixologik samaradorligini belgilovchi omil sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, N. Sattarov, M. Davletshin, Sh. Baratov kabi mahalliy olimlarning ishlarida pedagogik hamkorlik va shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlari, ta'lim jarayonida ijtimoiy muhitning ta'siri masalalari keng yoritilgan. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, ijobiy pedagogik muloqot muhiti ta'lim oluvchilarda ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash va kasbiy motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot va hamkorlik muammosi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan bo'lsa-da, ushbu tushunchalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari kompleks tarzda tahlil qilish, ularni zamonaviy ta'lim sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, pedagog va talaba o'rtasidagi hamkorlik faoliyatining psixologik mexanizmlarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida pedagogik muloqot va hamkorlikning ta'lim jarayonidagi ijtimoiy-psixologik ta'siri nazariy tahlil asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida pedagog va talaba o'rtasidagi muloqot uslublari, hamkorlik faoliyatining psixologik mexanizmlari hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy manbalar va amaliy kuzatishlar asosida tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik muloqot sifati bevosita pedagogik hamkorlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ijobiy, ochiq va demokratik muloqot muhiti shakllangan ta'lim jarayonida talabalarning o'quv faoliyatidagi faolligi, o'z fikrini erkin ifoda etish ko'nikmalari hamda psixologik barqarorligi sezilarli darajada ortadi. Bunday sharoitda pedagog va talaba o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlar qaror topadi. Tahlil davomida aniqlanishicha, pedagogik muloqotning avtoritar uslubi ustuvor bo'lgan ta'lim muhitida talabalarda psixologik zo'riqish, tashabbuskorlikning pasayishi hamda muloqotdan qochish holatlari kuzatiladi. Bu esa pedagogik hamkorlikning susayishiga, ta'lim jarayonida subyekt-obyekt munosabatlarining kuchayishiga olib keladi. Aksincha, demokratik muloqot uslubi pedagog va talaba o'rtasida tenglik, hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirib, hamkorlik faoliyatining samaradorligini oshiradi. Pedagogik hamkorlikning ijtimoiy-psixologik tahlili shuni ko'rsatdiki, hamkorlik faoliyati talabaniing shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonida talabalar o'zini faol subyekt sifatida anglaydi, mustaqil qaror qabul qilishga, jamoada ishlashga va o'z imkoniyatlarini baholashga o'rganadi. Bu jarayonlarda refleksiya, empatiya va o'zaro tushunish kabi psixologik mexanizmlar muhim rol o'ynaydi. Tahlil natijalariga ko'ra, pedagogik muloqot va hamkorlikning

samarali tashkil etilishi ta'lim oluvchilarning motivatsion sohasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy psixologik muhitda tashkil etilgan hamkorlik faoliyati ichki o'quv motivatsiyasini kuchaytirib, talabalarining bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim natijalarining barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, pedagogik muloqot jarayonida pedagog shaxsining kommunikativ kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi aniqlanadi. Pedagogning tinglay bilish, talaba fikrini qabul qilish, emotsional holatni anglash va mos psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyatlari hamkorlik faoliyatining sifatini belgilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori kommunikativ kompetensiyaga ega pedagoglar bilan ishlagan talabalar o'zlarini psixologik jihatdan qulay his etadilar va o'quv jarayonida faolroq ishtirok etadilar.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot va hamkorlik ta'lim jarayonida o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisalar hisoblanadi. Ularning uyg'unlashgan holda tashkil etilishi ta'lim samaradorligini oshirish, shaxslararo munosabatlarni sog'lomlashtirish hamda ta'lim oluvchilarning psixologik farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur maqolada pedagogik muloqot va hamkorlik tushunchalarining ijtimoiy-psixologik mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi hamda ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot davomida pedagogik muloqot va hamkorlikning shaxs rivojiga, ta'lim samaradorligiga hamda pedagog–talaba munosabatlarining sog'lomlashuviga ta'siri keng yoritildi. O'rganilgan ilmiy manbalar va amalga oshirilgan nazariy tahlillar ushbu tushunchalarning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagogik muloqot ta'lim jarayonining ajralmas ijtimoiy-psixologik komponenti bo'lib, u nafaqat bilim va axborot uzatish vositasi, balki shaxslararo munosabatlarni shakllantiruvchi, ta'lim oluvchining psixologik holati va motivatsiyasiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan o'zaro ta'sir, empatiya, refleksiya va ijtimoiy idrok mexanizmlari pedagog va talaba o'rtasidagi ishonchli munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Pedagogik hamkorlik esa pedagogik muloqotning yuqori bosqichi sifatida namoyon bo'lib, subyekt–subyekt munosabatlariga asoslanadi. Hamkorlikka yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talaba passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi, o'z ta'lim faoliyatining subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat talabaning mustaqil fikrlashi, mas'uliyat hissi, ijtimoiy faolligi va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Shuningdek, pedagogik hamkorlikning ta'lim oluvchilarning motivatsion sohasiga ijobiy ta'siri ham aniqlangan muhim xulosalardan biridir. Hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonida talabalar ichki o'quv motivatsiyasiga ega bo'lib, bilim olishga nisbatan barqaror qiziqish namoyon etadilar. Bu esa ta'lim natijalarining uzoq muddatli va barqaror bo'lishiga zamin yaratadi. Mazkur tadqiqot pedagogik muloqot

va hamkorlik masalasining ijtimoiy-psixologik jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida pedagogik muloqotdagi psixologik to'siqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda pedagogik hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik muloqot va hamkorlik ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim ijtimoiy-psixologik omillar hisoblanadi. Ularni ilmiy asoslangan holda tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va sog'lom pedagogik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. –Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 384 b.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 296 b.
3. Baratov Sh.R. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2004. – 268 b.
4. Sattarov N. Ta'lim jarayonida shaxs rivoji va muloqot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 180 b.
5. Leontev A.A. Pedagogik muloqot psixologiyasi. – M.: Prosveshcheniye, 1996. – 312 b.
6. Kan-Kalik V.A. Pedagogik muloqot. – M.: Pedagogika, 1987. – 256 b.
7. Amonashvili Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – Tbilisi: Ganatleba, 1989. – 214 b.
8. Shatalov V.F. Ta'lim jarayonini faollashtirish usullari. – M.: Pedagogika, 1990. – 192 b.